



Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Tarix fani 9-sinf

21.10.2024

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Mashhur fizik va kimyogar olimlardan Andre-Mari Amper qaysi davlat fuqarosi edi?

- A) Angliya B) Italiya
C) Fransiya D) AQSH

2. Birinchi jahon urushiga 1917-yil qo'shilgan va qarz berish evaziga katta boylik orttirgan davlatni aniqlang.

- A) Rossiya B) Angliya
C) Italiya D) AQSH

3. Patriarxat davri boshlangan davrga taalluqli kashfiyotni aniqlang.

- A) G'ildirak B) Mikrolit
C) Sopol o'choq D) Taqinchoq

4. Lotin Amerikasi xalqlarining milliy-ozodlik kurashi namoyondalaridan qaysi biri qishloq ruhoniysi bo'lgan?

- A) Xose Morelos B) Simon Bolivar
C) Xose San-Marti D) Migel Idalgo

5. Quyidagi rivoyat qaysi davlatga oid ekanligini aniqlang. Quyosh ma'budi har tongda oltin aravada osmon bo'ylab yo'lga tushadi. Quyosh tungi zulmatni parokanda qilib tashlab, odamlarga harorat va yorug'lik ulashish niyatida ufqdan bosh ko'taradi.

- A) Mesopotamiya B) Xitoy
C) Hindiston D) Qadimgi Misr

6. Suriyadagi shamol tegirmonlariga o'xshash tegirmonlar qachondan boshlab Yevropada ham qurila boshlanadi?

- A) V asrdan B) IX asrdan
C) XII asrdan D) XVII asrdan

7. Qaysi davrga kelib insonlar hayotida o'zlashrituvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalik – chorvachilik va dehqonchilikka o'ta boshladi?

- A) So'nngi paleolit B) Mezolit
C) Neolit D) Bronza

8. Angliyada 1643-yilning oxiriga kelib, mamlakat hududining qancha qismi qirol hukmronligi ostida edi?

- A) 1/2 qismi
B) 2/3 qismi
C) 2/4 qismi
D) 3/4 qismi

9. Polsha davlatiga qachon asos solingan?

- A) X asr o'rtalarida B) XII asr oxirlarida
C) XI asr o'rtalarida D) XI asr oxirlarida

10. Braziliya qaysi Yevropa davlatining mustamlakasi bo'lgan?

- A) Angliya B) Portugaliya
C) Ispaniya D) Fransiya

2-qism: Har bir topshiriq 1,7 balldan baholanadi

11. Buyuk ipak yo'lining tashkil topishi Xitoyning qaysi sulolasi davriga to'g'ri keladi?

- A) Chjou sulolasi B) Xun sulolasi
C) Sin sulolasi D) Xan sulolasi

12. Qachon misrliklar mo'g'ullar qo'shini ustidan g'alaba qozonib, ularning Yaqin Sharq va Afrikaga yurishlarini to'xtatib qoladilar?

- A) 1237-yil B) 1260-yil
C) 1252-yil D) 1221-yil

13. Olimlar qadimgi yozuvlarni bir necha turlarga bo'lganlar. Ularning dastlabkisi qanday atalgan?

- A) Buyumli yozuv B) Rasml yozuv
C) Eslatuvchi belgilar D) So'z yozuvi

14. Fransiyada Burbonlar sulolasi hokimiyatini tiklashga harakat qilgan ittifoqchi davlatlarni toping.

- A) Buyuk Britaniya, Gollandiya, Prussiya
B) Buyuk Britaniya, Italiya, Rossiya
C) Avstriya, Germaniya, Italiya
D) Belgiya, Gollandiya, Prussiya

15. Baqtriyada yunon yozuvi, yunon og'irlik o'lchov birliklari, pul munosabatlari, hunarmandchilik va san'at buyumlari tarqaldi. O'z navbatida yunonlar ham Baqtriyaning qanday an'alarini o'zlashtirdilar?

- A) Dehqonchilik va hunarmandchilik
B) Binokorlik va hunarmandchilik
C) Dehqonchilik va savdo-sotiq
D) Chorvachilik va me'morchilik

16. Kimning maqsadi inson tabiatini beparvo kuzatish emas, odamlarga sidqidildan achinish, ularga insoniylikni saqlab qolishda ko'maklashish, yovvoyilashib ketishdan ogohlantirish edi?

- A) Jonatan Svift
B) Daniyel Defo
C) Iogann Volfgang Gyote
D) Volfgang Amadey Motsart





Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Tarix fani 9-sinf

21.10.2024

17. O'rta asrlarda Hindistonda Xarsha tomonidan qaysi shahar madaniy markazga aylantiriladi?

- A) Maysur B) Jafna
C) Udjay D) Goa

18. "Avesto"da yovuz kuchlar ziyon yetkazmasligi uchun nimaga da'vat etilgan?

- A) Insonlar yolg'on gapirmasligi
B) Yer haydab dehqonchilik qilishga
C) Bergan va'dalarini ustidan chiqishlari
D) Insonlarga faqat yaxshilik qilishlari

19. Yapon syogunlaridan qaysi biri yerni sotish, sotib olish yoki garovga qo'yishni taqiqlovchi qonun chiqargan?

- A) Yosimune B) Tokugava
C) Xidoyosi D) Nobunaga

20. Turkiy xalqlarning xislatlari haqida bitilgan "Manoqib al-atroq" asarida qaysi xalq hunarmandchilikda ustun bo'lgan?

- A) sosoniylar B) sug'diylar
C) turklar D) xitoyliklar

3-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi

21. Quyidagi tarixiy voqealar (ma'lumotlar) to'g'ri xronologik ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni toping?

1. Napoleon Muqaddas Yelena orolida surgunda halok bo'ldi;
2. Hindistonda sipohiylar qo'zg'oloni bostirildi;
3. Afg'on amiri Do'stmuhammadxon vafot etdi;
4. Efiopiyada Kassa hokimiyati ag'darildi;
5. Germaniyada 30 yillik urush tugadi;
6. Daniel Defo vafot etdi;
7. Afg'oniston amiri Do'st Muhammadxon Buyuk Britaniya bilan afg'on-ingliz harbiy bitimini imzoladi;
A) 5, 2, 6, 4, 1, 7, 3 B) 5, 6, 1, 7, 2, 3, 4
C) 5, 6, 2, 4, 3, 7, 1 D) 6, 5, 2, 1, 3, 7, 4

22. Kichik Osiyoda XI asr oxiridan o'g'uz turklari bilan turklashgan qaysi xalqlarning qo'shilishidan turk millati shakllana boshlaydi?

- A) forslar, armanlar
B) xitoyliklar, yunonlar
C) gruzinlar, arablar
D) hindlar, armanlar

23. Quyidagilardan Shan davlati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni aniqlang.

- 1) Xitoy hududidagi ilk davlat bo'lib, Xuanxe daryosining o'rta oqimida paydo bo'lgan;
2) Davlat nomi uning bosh shahri nomidan kelib chiqqan;
3) Davlat yerlari ulkanligi bois hukmdorlari uni "Osmon ostidagi podshohlik", o'zlarini esa "Osmon o'g'illari" deb atagan;
4) Miloddan avvalgi 2-ming yillikda Xitoy hududida mavjud bo'lgan;
5) Chjou qabilasi tomonidan tugatilgan.
A) 1, 2, 3
B) 2, 4, 5
C) 2, 3, 4
D) 1, 3, 5

24. O'rta asrlarda Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan O'rto Osiyo shaharlari tranzit savdo markazlari edi. Chet ellik savdogarlar qayerning qog'oz va gazlamalarini yuqori baholaganlar?

- A) Samarqand B) G'ijduvon
C) Toshkent D) Sheroz

25. Koreyaga xitoy yozuvlari va iyerogliflari hamda buddizm ushbu davlat orqali kirib kelgan. Bu davlat III-IV asrlarda Koreya yarim orolining janubida tashkil topadi. Mamlakatdan chiqqan olimlardan biri Yaponiya taxt vorisini o'qitadi. Ma'lumotda qaysi davlat haqida aytilmoqda?

- A) Silla B) Koryo
C) Pekche D) Choson

26. Qaysi javobda quyidagi voqealarni xronologik vaqti to'g'ri berilgan?

1. Urartu davlati gullab-yashnadi;
2. Finikiyada alifbo yaratildi;
3. Hindistonda Magadha, Koshalla, Malla kabi davlatlar tashkil topdi;
4. Chjouda markaziy hokimiyat zaiflashdi.
a) mil.avv. VIII-VII asr; b) mil.avv. X asr; c) mil.avv. VII-VI asrlar; d) mil.avv. IX-VIII asrlar
A) 1-d, 2-a, 3-c, 4-b
B) 1-a, 2-d, 3-c, 4-b
C) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d
D) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a





Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Tarix fani 9-sinf

21.10.2024

27. Qaysi Boburiy hukmdor davrida mamlakatda Mirzo Ulugʻbek tizimiga asoslangan yagona taqvim joriy qilingan?

- A) Humoyun Mirzo B) Akbarshoh
C) Avrangzeb Olamgir D) Bobur Mirzo

28. Yunon-Baqtriya davlatining kuchsizlanishi qaysi tarixiy jarayon ortida yuz bergan?

- A) Yuechji qabilalari tomonidan Yunon-Baqtriya davlatining bosib olinishi
B) Parfiyada hokimiyat Mitridat I qoʻliga oʻtishi bilan u Baqtriyaga harbiy tazyiqni kuchaytirishi
C) Koʻchmanchi qabilalar hujumlari, boʻsundirilgan xalqlarning gʻalayonlari
D) Ichki kurashlar, dehqonlar qoʻzgʻoloni va taxt uchun kurashlar

29. Quyidagi tarixiy voqealar (maʼlumotlar) toʻgʻri xronologik ketma-ketlikda koʻrsatilgan javobni toping.

- 1) Xetlar davlati vujudga keldi;
2) Old Osiyoda ilk davlatlar vujudga keldi;
3) Urartu gullab-yashnagan;
4) Misrda soʻnggi podsholik vujudga keldi;
5) Ahamoniylar davlati tuzildi;
6) Hindistonda Moxenjadoro shahri vujudga keldi
A) 6, 2, 1, 3, 4, 5
B) 2, 1, 3, 4, 5, 6
C) 6, 2, 1, 4, 5, 3
D) 6, 4, 3, 1, 2, 5

30. 806-yilda arab lashkarboshchisi Rofe ibn Lays boshchiligida xalifalikka qarshi yana qoʻzgʻolon koʻtariladi. Qoʻzgʻolon Movarounnahr viloyatlariga tarqalgan. Quyida keltirilganlardan ushbu gapda qayd etilgan viloyatlarni aniqlang.

- 1) Miyonqol; 2) Samarqand; 3) Shosh; 4) Fargʻona; 5) Buxoro; 6) Naxshab; 7) Xorazm; 8) Shahrisabz; 9) Urgut.
A) 1, 4, 5, 6, 7, 9
B) 1, 3, 4, 6, 8, 9
C) 2, 3, 4, 5, 6, 7
D) 2, 3, 5, 7, 8, 9

